Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 56 No. 3
LITERARY STUDIES
https://philmatt.uzswlu.uz

Received: August 3, 2026
Accepted: September 23, 2026
Available online: September 25, 2026

https://doi.org/10.36078/987655601

Review article / Sharh maqola

THE STUDY OF THE ISSUE OF ECOLOGICAL CRISIS IN WORLD LITERARY STUDIES

Khulkar ISHQOBILOVA

Senior Teacher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0009-0007-7108-6090
Email: ishkobilovakhulkar@icloud.com

ABSTRACT

This article aims to examine research on ecological crisis in global literary studies, trace the formation and development of ecocriticism, identify contemporary theoretical approaches, and compare principles guiding environmental research in Western and Uzbek literary scholarship. Its objectives are to outline ecocriticism's evolution as an independent field, analyse theoretical and methodological perspectives on ecological crisis, and synthesise the conceptual contributions of leading scholars. It examines the role, interrelationships, and interpretive potential of environmental humanities, posthumanism, climate fiction, the Anthropocene, and environmental justice in contemporary literary analysis.

The study employs systematic analysis, historical-comparative, comparative-typological, descriptive-analytical, and bibliographic methods. These approaches help organise scholarly perspectives, compare stages in ecocriticism's development, and identify similarities and differences between Western and Uzbek theoretical and methodological traditions.

The findings demonstrate that Western literary scholarship examines ecological crisis through global environmental processes, climate change, the Anthropocene, environmental justice, and related theoretical frameworks. Uzbek literary studies, by contrast, address environmental issues primarily through national ecological experience, especially the Aral Sea disaster, the spiritual relationship between humans and nature, historical memory, and environmental responsibility. The analysis further indicates that contemporary ecocritical theories and comparative, interdisciplinary approaches remain insufficiently integrated into Uzbek literary research.

The study concludes that combining international ecocritical theories with Uzbek ecological thought and national literary traditions can broaden the methodological scope of environmental literary studies. This integration can deepen interpretations of ecological concepts in Uzbek literature within international scholarly discourse, encourage comparative investigations, and establish a theoretical and methodological foundation for future interdisciplinary research. It may also support context-sensitive analytical frameworks that account for universal environmental concerns and culturally specific literary representations, strengthening Uzbek scholarship's contribution to international discussions of literature, ecology, and environmental responsibility.

Key words: ecocriticism, ecological crisis, ecocriticism in literary studies, ecological discourse, nature, humanity, world literature, literary research.

For citation:

Ishqobilova, Kh. (2026). The study of the issue of ecological crisis in world literary studies. *Philology Matters*, *56*(3), 123–140. https://doi.org/10.36078/987655601.

© Khulkar Ishqobilova, 2026. Licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA EKOLOGIK INQIROZ MASALASINING TADQIQI

Xulkar ISHQOBILOVA

Katta o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi jahon adabiyotshunosligida ekologik inqiroz muammosining tadqiq etilish holatini tizimli o‘rganish, ekokritikaning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini umumlashtirish, zamonaviy nazariy yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda G‘arb va o‘zbek adabiyotshunosligida ekologik muammolarni o‘rganish tamoyillarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga ekokritikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanish va evolyutsion taraqqiyot bosqichlarini yoritish, adabiyotshunoslikda ekologik inqirozga doir nazariy-metodologik qarashlar rivojlanishini tizimli tahlil qilish hamda soha yetakchi namoyandalarining konseptual yondashuvlarini umumlashtirish kabi asosiy vazifalar qo‘yildi. Shuningdek, zamonaviy adabiy jarayonni tahlil qilishda ekologik gumanitar fanlar, postgumanizm, iqlimiy proza, antropotsen hamda ekologik adolat singari zamonaviy paradigmalarning ekologik adabiyotshunoslikdagi o‘rni, o‘zaro aloqadorligi va interpretatsion imkoniyatlarini konseptual asosda belgilash nazarda tutilgan. Shu bilan birga, G‘arb va o‘zbek adabiyotshunosligidagi ekologik tadqiqotlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda mavjud ilmiy bo‘shliqlarni ko‘rsatishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-tahliliy va bibliografik metodlardan foydalanilgan. Mazkur metodlar ekologik inqiroz muammosiga oid ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, ekokritikaning turli rivojlanish bosqichlarini o‘zaro qiyoslash hamda G‘arb va o‘zbek adabiyotshunosligidagi nazariy-metodologik yondashuvlarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, G‘arb adabiyotshunosligida ekologik inqiroz global ekologik jarayonlar, iqlim o‘zgarishi, antropotsen, ekologik adolat va boshqa zamonaviy nazariy konsepsiyalar doirasida keng talqin qilinmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida esa ekologik masalalar ko‘proq milliy ekologik tajriba, xususan, Orol dengizi fojiasi, tabiat va inson o‘rtasidagi ma’naviy uyg‘unlik, tarixiy xotira va ekologik mas’uliyat bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Tahlil, shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida zamonaviy ekokritik nazariyalarning metodologik imkoniyatlaridan hamda qiyosiy va fanlararo yondashuvlardan foydalanish hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilindiki, jahon ekokritikasida shakllangan nazariy va metodologik tajribani o‘zbek adabiyotidagi ekologik tafakkur va milliy badiiy an’analar bilan uyg‘un holda o‘rganish ekologik adabiyotshunoslikning tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Bunday yondashuv o‘zbek adabiyotidagi ekologik konsepsiyalarni xalqaro ilmiy kontekstda chuqurroq talqin qilish, qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda kelgusidagi fanlararo izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekotanqid, ekologik inqiroz, ekologik adabiyotshunoslik, ekologik diskurs, tabiat, inson, jahon adabiyoti, adabiy tadqiqot.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Хулкар ИШКОБИЛОВА

Старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Цель статьи заключается в системном изучении состояния исследования проблемы экологического кризиса в мировом литературоведении, обобщении этапов становления и развития экокритики, выявлении особенностей современных теоретических подходов и сравнительном анализе принципов изучения экологической проблематики в западном и узбекском литературоведении. В соответствии с поставленной целью рассмотрены этапы формирования и эволюционного развития экокритики как самостоятельного научного направления, систематизированы теоретико-методологические взгляды на экологический кризис в литературоведении и обобщены концептуальные подходы ведущих представителей данной области. Особое внимание уделено определению роли, взаимосвязей и интерпретационных возможностей современных парадигм, включая экологические гуманитарные науки, постгуманизм, климатическую прозу, антропоцен и экологическую справедливость, при анализе современного литературного процесса. Кроме того, выявлены общие и специфические черты экологических исследований в западном и узбекском литературоведении, а также обозначены существующие научные пробелы.

В исследовании использованы методы системного анализа, историко-сравнительный, сравнительно-типологический, описательно-аналитический и библиографический методы. Их применение позволило систематизировать научные представления об экологическом кризисе, сопоставить различные этапы развития экокритики и выявить сходства и различия теоретико-методологических подходов в западном и узбекском литературоведении.

Результаты исследования показали, что в западном литературоведении экологический кризис широко рассматривается в контексте глобальных экологических процессов, изменения климата, антропоцена, экологической справедливости и других современных теоретических концепций. В узбекском литературоведении экологическая проблематика преимущественно изучается в связи с национальным экологическим опытом, в частности трагедией Аральского моря, духовной гармонией человека и природы, исторической памятью и экологической ответственностью. Анализ также выявил, что применение методологических возможностей современных экокритических теорий, а также сравнительных и междисциплинарных подходов в узбекском литературоведении пока не получило достаточного развития.

В заключение установлено, что интеграция теоретического и методологического опыта мировой экокритики с экологическим мышлением и национальными художественными традициями узбекской литературы способна расширить исследовательские возможности экологического литературоведения. Такой подход позволит глубже интерпретировать экологические концепции в узбекской литературе в международном научном контексте, развивать сравнительные исследования и создать теоретико-методологическую основу для дальнейших междисциплинарных изысканий.

Ключевые слова: экокритика, экологический кризис, экологическое литературоведение, экологический дискурс, природа, человек, мировая литература, литературоведческие исследования.

KIRISH

XXI asrda ekologik inqiroz insoniyat duch kelayotgan eng jiddiy global muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, tabiiy resurslarning qisqarishi, suv va havo ifloslanishi kabi jarayonlar bugungi kunda nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar uchun ham muhim tadqiqot mavzusiga aylandi. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning izdan chiqishi ekologik muammolarni faqat ilmiy yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan emas, balki madaniy, axloqiy va badiiy jihatdan ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zero, badiiy adabiyot global ekologik tanazzul va insoniyat psixikasidagi ekotravmalarni estetik jihatdan aks ettiruvchi hamda jamiyatda ekologik mas’uliyat

hissini shakllantiruvchi o‘ziga xos intellektual vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ekologik inqiroz masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, badiiy asarlarni ekologik tafakkur asosida talqin qilishga qaratilgan tadqiqotlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Bu jarayonda ekokritika ekologik adabiyotshunoslikning yetakchi nazariy yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlandi. Natijada tadqiqot markazida faqat tabiat tasviri emas, balki inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar, ekologik adolat, ekologik xotira hamda noinson mavjudotlarning badiiy talqini kabi masalalar ham o‘rin ola boshladi. Bu esa ekokritikaning nazariy doirasini kengaytirib, uni fanlararo tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

Garchi so‘nggi yillarda ekologik adabiyotshunoslik muammolariga doir salmoqli izlanishlar e’lon qilingan bo‘lsa-da, ularning aksariyati G‘arb adabiy makoni va uning nazariy-metodologik maktablari doirasi bilangina cheklanib qolmoqda. Mahalliy (o‘zbek) adabiyotshunosligida esa ekologik inqiroz masalasi an’anaviy ravishda ko‘proq Orol fojiasi, inson va tabiat sintezi hamda ekologik mas’uliyat diskursi prizmasidan tadqiq etib kelindi. Biroq milliy adabiy tajribani jahon ekokritikasining zamonaviy konseptual nazariyalari bilan komparativistik (qiyosiy) jihatdan tahlil qiluvchi va mavjud paradigmalar tizimini yaxlit konseptual qolipga soluvchi integrativ tadqiqotlar hamon yetishmaydi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik inqiroz muammosiga oid dunyo miqyosidagi ilmiy izlanishlar natijalarini tizimlashtirish, ularning evolyutsion tendensiyalarini aniqlash hamda istiqboldagi nazariy-metodologik yo‘nalishlarni belgilash fanning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi jahon adabiyotshunosligida ekologik inqiroz muammosiga oid ilmiy qarashlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqish, ekokritikaning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini umumlashtirish, zamonaviy nazariy yondashuvlarning o‘ziga xos jihatlarini yoritish hamda G‘arb va o‘zbek adabiyotshunosligida ushbu muammoni o‘rganishdagi asosiy tendensiyalarni tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tizimli tahlil, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-tahliliy hamda bibliografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Jahon adabiyotshunosligida ekologik inqiroz muammosining o‘rganilish bosqichlari, ekokritikaning shakllanishi va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini yoritishda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, ularni umumlashtirish va xulosalash usullari asosiy metodologik yondashuv bo‘ldi. Shuningdek, ekokritik nazariyalar, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda bugungi adabiyotshunoslikdagi o‘rnini aniqlashda fanlararo yondashuv tamoyillariga ham tayanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini ekokritika va ekologik adabiyotshunoslik sohasida e’tirof etilgan olimlar – Sh.Glotfelti, L.Byuell , G.Garrard, U.K. Hayze, T.Morton, S.Slovik, J.S. Rayan, P.Sends, R.Emmett va D.Nayning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi va manbalarini belgilashda o‘zbek adabiyotshunosligida ekologik tafakkur, qiyosiy adabiyotshunoslik hamda badiiy matn interpretatsiyasi masalalariga oid U.Normatov [Normatov, 2007],

H.Boltaboyev [Boltaboyev, 2019] va D.Quronov [Quronov, 2018] kabi yetakchi olimlarning fundamental ilmiy ishlari va konseptual qarashlariga tayanildi. Mazkur metodlar jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ekologik inqiroz muammosining o‘rganilish holatini qiyosiy baholash, zamonaviy ekokritikaning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash hamda mavjud ilmiy bo‘shliqlarni belgilash imkonini berdi. Shu asosda ekologik adabiyotshunoslikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasini tizimlashtirishda zamonaviy g‘arb ekokritik yondashuvlari, xususan, “Tabiiy resurslarni o‘zlashtirishning ekokritik tahlili” (“Ecocritical Extraction Analysis”) metodining nazariy tamoyillariga tayanildi. Ushbu innovatsion metodologiya badiiy matnlarni ijtimoiy resurslardan foydalanish mantig‘i, ekologik adolat mezonlari, iqlimiy transformatsiyalar hamda inson-tabiat munosabatlari prizmasidan kompleks (boshqa fanlararo) interpretatsiya qilishni ko‘zda tutadi. Shu jihatdan mazkur yondashuv ekologik inqirozning badiiy ifodasini shunchaki estetik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy va aksiologik (axloqiy) mazmunga ega universal jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi. Binobarin, qayd etilgan metodologik qarashlar ekokritikaning zamonaviy nazariy doirasi tobora kengayib borayotganidan hamda adabiy matnni global ekologik kolliziyalar kontekstida o‘rganishning yangi tahliliy ufqlari ochilayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida tavsifiy-tahliliy, tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Tavsifiy-tahliliy metod orqali ekologik inqiroz muammosiga oid ilmiy qarashlarning mazmuni va nazariy asoslari yoritildi. Tarixiy-qiyosiy metod ekokritikaning turli bosqichlarda qanday rivojlanganini hamda uning nazariy qarashlaridagi o‘zgarishlarni aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida esa Amerika va boshqa mamlakatlar adabiyotshunosligida ekologik inqiroz masalasiga doir tadqiqotlarning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarni tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan ham foydalanildi. Bu yondashuv mavjud tadqiqotlarni mazmuni va metodologik xususiyatlariga ko‘ra guruhlash, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda ekokritika yo‘nalishining bugungi rivojlanish holatini yaxlit baholash imkonini berdi. Maqolada bildirilgan xulosalar turli ilmiy manbalarni o‘zaro qiyoslash va tahlil qilish natijasida shakllantirildi.

NATIJALAR

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik muammolarning tobora keskinlashib borishi nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar sohalarda ham tabiat va inson munosabatlariga yangicha qarash zaruratini yuzaga keltirdi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, o‘rmonlarning qisqarishi va iqlim o‘zgarishi kabi jarayonlar inson faoliyatining tabiatga ta’sirini yanada yaqqol namoyon etdi. Bu o‘zgarishlar adabiyotshunoslikdan ham chetda qolmadi. Natijada tabiatning badiiy asardagi o‘rni va insonning tabiiy muhit bilan munosabatini maxsus o‘rganishga qaratilgan ekokritik yondashuv shakllana boshladi. Agar dastlab tabiat asosan voqealar kechadigan makon, estetik

manzara yoki qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda u inson hayoti, madaniyati va ekologik tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida qarala boshlandi.

Ekokritikaning nazariy jihatdan shakllanishida Sh.Glotfelti va G.Fromm muharrirligi ostida nashr etilgan “Ekokritika xrestomatiyasi: adabiy ekologiyaning muhim bosqichlari” (“The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology”) to‘plami muhim o‘rin egallaydi. Unda Sh.Glotfelti ekokritikani adabiyot va tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida ta’riflaydi [Glotfelty & Fromm, 1996]. Ushbu ta’rifning ahamiyati shundaki, tabiat badiiy asarning ikkinchi darajali unsuri sifatida emas, balki inson hayoti va madaniyati bilan doimiy aloqada bo‘lgan muhit sifatida tushuniladi. Shu tariqa badiiy matnni ekologik nuqtayi nazardan o‘rganish uchun muayyan nazariy asos yaratildi va keyingi ekokritik izlanishlarning yo‘nalishi belgilandi.

Ekokritikaning keyingi taraqqiyotida L.Byuellning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etdi. Olim “Ekologik tasavvur” (“The Environmental Imagination”) nomli asarida tabiatni badiiy matnning oddiy foni sifatida emas, balki syujet, obrazlar tizimi va asarning g‘oyaviy mazmuniga ta’sir qiluvchi faol unsur sifatida ko‘radi [Buell, 1995]. Bu qarash tabiat tasvirining o‘zinigina emas, uning qahramonlarning hayoti va qarorlariga qanday ta’sir qilishini ham o‘rganishga yo‘l ochdi. Olim keyinchalik “Ekologik tanqidning kelajagi” (“The Future of Environmental Criticism”) asarida ekokritikaning tadqiqot doirasini yanada kengaytiradi. Unda ekologik adolat, urbanizatsiya, sanoatlashuv va global ekologik tahdidlar kabi masalalar ham ekologik adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rib chiqiladi [Buell, 2005]. Shu jihatdan L.Byuellning qarashlari [Buell, 2001] ekokritikaning tabiat tasvirini o‘rganish bilan cheklanib qolmay, kengroq ijtimoiy va madaniy masalalarga yuzlanishida muhim nazariy bosqich bo‘ldi.

G.Garrardning tadqiqotlarida esa ekokritikaning asosiy tushuncha va kategoriyalari tizimli shaklda yoritiladi. Uning “Ekokritika” (“Ecocriticism”) deb nomlangan monografiyasida ifloslanish, pastoral, yovvoyilik, yashash muhiti, hayvonlar va ekologik inqiroz kabi tushunchalar badiiy matnni ekologik nuqtayi nazardan o‘rganishning muhim mezonlari sifatida sharhlanadi [Garrard, 2023]. G.Garrard ekologik muammolarni faqat tabiatda yuz berayotgan jarayonlar bilan bog‘lamaydi. Aksincha, ularning ortida jamiyatning iqtisodiy manfaatlari, madaniy qadriyatlari va tabiatga bo‘lgan munosabati ham mavjudligini ko‘rsatadi [Garrard, 2014]. Bunday yondashuv adabiyotga ekologik inqirozning sabab va oqibatlarini inson tajribasi orqali anglash imkonini beruvchi muhim vosita sifatida qarashga olib keladi.

XXI asrga kelib ekokritik tadqiqotlarning nazariy doirasi yanada kengaydi. U.K. Hayze ekologik muammolarni mahalliy hodisa sifatida emas, balki global madaniy jarayonlarning bir qismi sifatida o‘rganish zarurligiga e’tibor qaratadi [Heise, 2008, 2016, 2017, 2024]. Bu yondashuv ekologik inqirozni globallashuv, migratsiya, iste’mol madaniyati va transmilliy jarayonlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishga imkon beradi. T.Morton esa inson va tabiatni bir-biridan ajratib qo‘yadigan

an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqadi [Morton, 2007, 2013]. Uning “giperobyekt” tushunchasi orqali iqlim o‘zgarishi singari makon va vaqt jihatidan nihoyatda katta ekologik hodisalarning murakkabligi izohlanadi. Bu kabi qarashlar ekokritikani adabiy tahlil doirasidan kengroq falsafiy muammolar tomon olib chiqdi.

O‘rganilgan manbalarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ekokritikaning rivojlanishi bilan uning tadqiqot obyekti ham asta-sekin o‘zgarib borgan. Dastlab tabiat, landshaft, yovvoyi muhit va insonning tabiatga munosabati markaziy o‘rinda turgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda iqlim o‘zgarishi, ekologik adolat, ekologik migratsiya, insondan boshqa tirik mavjudotlarning maqomi, antropotsen hamda inson faoliyatining sayyoraviy oqibatlari kabi masalalar tobora faol o‘rganilmoqda. Demak, ekokritika bugungi kunda faqat “adabiyot va tabiat” munosabatini tahlil qiladigan yo‘nalish emas. U ekologik inqirozning inson hayoti, jamiyat va madaniyatga ta’sirini o‘rganuvchi keng fanlararo tadqiqot maydoniga aylanmoqda.

Bu jarayonda ekologik gumanitar fanlarning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalish adabiyotshunoslikni ekologiya, tarix, falsafa, antropologiya, geografiya va madaniyatshunoslik bilan yaqinlashtirdi. Natijada ekologik inqirozni faqat tabiatdagi fizik yoki biologik o‘zgarishlar orqali tushuntirish yetarli emasligi ayon bo‘ldi. Chunki, ekologik muammolar insonning kundalik hayoti, iqtisodiy faoliyati, tarixiy xotirasi, qadriyatlari va kelajak haqidagi tasavvurlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Badiiy adabiyot esa ana shu murakkab jarayonning insoniy tomonini ko‘rsatib bera olishi bilan boshqa ilmiy manbalardan farq qiladi.

So‘nggi yillarda iqlim haqidagi badiiy adabiyot (Climate Fiction – Cli-Fi)ning keng o‘rganilayotgani ham ekokritikaning yangi yo‘nalishlarga yuz tutayotganidan dalolat beradi. Bunday asarlarda iqlim o‘zgarishi shunchaki voqealar sodir bo‘ladigan fon bo‘lib qolmaydi. U qahramonlar hayoti, ularning tanlovi, jamiyatning kelajagi va ba’zan butun syujet rivojini belgilaydigan omilga aylanadi. Aynan shu nuqtada badiiy adabiyotning imkoniyati yaqqol ko‘rinadi: ilmiy ma’lumotlarda raqam yoki prognoz sifatida berilgan ekologik xavf adabiy matnda insonning shaxsiy hayoti, qo‘rquvi, yo‘qotishi va umidi orqali his qilinadigan voqelikka aylanadi. Shu sababli iqlim haqidagi badiiy adabiyot ekologik ongning shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bibliometrik tadqiqotlar ham ekokritikaning jahon adabiyotshunosligida faol rivojlanayotganini ko‘rsatadi. 1994–2023-yillar davomida Scopus va Web of Science bazalarida chop etilgan ilmiy ishlar tahlilida ushbu sohadagi nashrlar sonining muntazam ortib borgani qayd etilgan [Villanueva et al., 2024]. Tadqiqot natijalarida AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston va Xitoy ekokritika bo‘yicha faol ilmiy markazlar qatorida ko‘rsatiladi. Sh.Glotfelti, L.Byuell va G.Garrard [Garrard, 2011; Garrard et al., 2019] kabi olimlarning tadqiqotlariga ko‘p murojaat qilinishi esa ularning ekokritika nazariyasining shakllanishidagi o‘rnini yana bir bor ko‘rsatadi. Bu holat ekokritikaning alohida tadqiqot yo‘nalishidan xalqaro miqyosdagi keng ilmiy maydonga aylanganini ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, ekokritik tadqiqotlar geografiyasining kengayishi turli xalqlarning o‘z ekologik tajribasini adabiyot orqali o‘rganish masalasini ham kun

tartibiga olib chiqmoqda. Bu jihatdan o‘zbek adabiyoti uchun Orol dengizi fojiasi, suv tanqisligi, cho‘llanish, yer va tabiiy muhitdagi o‘zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur hodisalar shunchaki ekologik muammo emas, balki insonlarning turmush tarzi, xotirasi, ruhiyati va kelajak haqidagi tasavvurlariga ta’sir qilgan tarixiy tajribadir. Ularning badiiy adabiyotdagi aksini jahon ekokritikasi tamoyillari asosida o‘rganish ekologik inqirozning universal va milliy xususiyatlarini birgalikda ko‘rish imkonini beradi. Shu ma’noda G‘arb ekokritikasi nazariyalarini o‘zbek adabiyotiga tatbiq etish tayyor nazariy modelni oddiy ko‘chirish emas, balki uni mahalliy ekologik va madaniy tajriba bilan qiyoslab, qayta talqin qilishni talab etadi.

Nazariy qarashlarning kengayishi bilan birga ekokritik tahlil metodlari ham takomillashib bormoqda. Jumladan, tabiiy resurslarni o‘zlashtirishning ekokritik tahlili ekologik mazmundagi badiiy asarlarni tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik adolat hamda inson va tabiat munosabatlari nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganishni taklif etadi [Vasudevan & Mukherjee, 2025]. Bunday tahlilda yer, suv, o‘rmon yoki boshqa tabiiy boyliklar oddiy badiiy detal sifatida emas, balki iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq tushunchalar sifatida ham o‘rganiladi. Natijada ekologik inqirozning ortida turgan ijtimoiy va iqtisodiy sabablarni badiiy matn orqali ochib berish imkoniyati kengayadi.

Ekologik adolat masalasining ekokritik tadqiqotlarda kuchayib borayotgani ham bejiz emas. Ekologik inqirozning oqibatlari barcha insonlarga bir xil darajada ta’sir qilmaydi. Muayyan hududlar, ijtimoiy guruhlar yoki iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlar atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik falokatlardan ko‘proq zarar ko‘rishi mumkin. Adabiyot esa ana shu katta ekologik jarayonlarni alohida insonlarning taqdiri orqali ko‘rsatadi. Natijada ekologik muammo statistik ko‘rsatkich darajasidan chiqib, inson hayoti va axloqiy mas’uliyat masalasiga aylanadi.

S.Slovik ham ekologik adabiyotning aynan shu ijtimoiy vazifasiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, badiiy adabiyot insonning ekologik ongini shakllantirish va tabiat oldidagi mas’uliyat hissini kuchaytirishda muhim vosita bo‘la oladi [Slovic, 2008]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ekologik mazmundagi asarning qiymati uning tabiatni qanchalik go‘zal tasvirlagani bilangina belgilanmaydi. Muhimi shuki, bunday asar o‘quvchini tabiatdagi o‘zgarishlarning sabab va oqibatlari haqida o‘ylashga, insonning ushbu jarayondagi o‘rnini anglashga undaydi. Badiiy matnda ekologik falokat individual taqdir, yo‘qotish, qo‘rquv yoki umid bilan bog‘langanda uning ta’sir doirasi yanada kengayadi.

Tahlil qilingan ilmiy qarashlarni umumlashtirish ekokritikaning rivojlanishida uchta muhim tendensiyani ko‘rsatadi. Birinchidan, uning tadqiqot doirasi tabiat tasvirini o‘rganishdan global ekologik inqiroz masalalarigacha kengaydi. Ikkinchidan, ekokritika adabiyotshunoslik doirasidan chiqib, ekologiya, falsafa, tarix, antropologiya va boshqa fanlar bilan aloqador fanlararo tadqiqot maydoniga aylandi. Uchinchidan, adabiyotning ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishdagi imkoniyatlariga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Bu tendensiyalar bir-biridan ajralgan holda emas, aksincha, o‘zaro bog‘liq tarzda rivojlanib, zamonaviy ekokritikaning umumiy yo‘nalishini

belgilamoqda.

Umuman olganda, o‘rganilgan ilmiy manbalar ekokritikaning bugungi kunda adabiyotshunoslikning shakllangan va rivojlanishda davom etayotgan nazariy yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Dastlab tabiat obrazini o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratgan ushbu yo‘nalish hozir ekologik inqirozning madaniy, falsafiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab olmoqda [Ryan, 2020; Sands, 2025]. Fanlararo yondashuvlarning kuchayishi esa ekologik mazmundagi badiiy asarlarni yanada kengroq kontekstda tahlil qilish imkonini bermoqda. Eng muhimi, ekokritik qarashlarning rivojlanishi ekologik inqirozni insondan tashqarida sodir bo‘layotgan begona jarayon sifatida emas, balki uning turmush tarzi, dunyoqarashi, axloqiy tanlovi va kelajak oldidagi mas’uliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida tushunishga yordam beradi. Shu jihatdan jahon ekokritikasi tajribasini o‘zbek adabiyotidagi ekologik tafakkur bilan qiyosiy o‘rganish milliy adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy istiqbollardan biri bo‘lib qolmoqda.

MUNOZARA

Ekologik muammolarning global tus olishi adabiyotshunoslikda yangi ilmiy izlanishlar paydo bo‘lishiga turtki berdi. Shunday yo‘nalishlardan biri iqlim haqidagi badiiy adabiyot (Cli-Fi) bo‘lib, u dastlab iqlim o‘zgarishining ehtimoliy oqibatlarini tasvirlovchi badiiy asarlar majmuasi sifatida shakllangan [Johns-Putra, 2016, 2019; Johns-Putra & Goodbody, 2018]. Biroq bugungi kunga kelib ushbu tushuncha ancha keng ma’noga ega bo‘lib, ekologik inqirozning inson, jamiyat va madaniyat hayotiga ko‘rsatadigan ta’sirini badiiy talqin qiluvchi asarlarni ham o‘z ichiga olmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda iqlim haqidagi badiiy adabiyot nafaqat ekologik xavf-xatarlarni tasvirlash vositasi, balki ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar ushbu yo‘nalish orqali insonning tabiatga munosabati, ekologik mas’uliyati va kelajak haqidagi tasavvurlari qayta ko‘rib chiqilayotganini ta’kidlashadi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishining inson ruhiyati va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri badiiy asarlarda tobora chuqurroq yoritilayotgani iqlimiy badiiy adabiyotning nazariy imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda [Kang, 2024].

Shuningdek, Afrika, Amerika va Yevropa adabiyotiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning geografik va madaniy chegaralari tobora kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Turli mintaqalarda ekologik inqiroz umumiy global muammo sifatida namoyon bo‘lsa-da, uning badiiy talqini har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va tabiat haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli iqlimiy badiiy adabiyot bugungi kunda nafaqat ekologik, balki madaniy va sivilizatsion jarayonlarni ham yorituvchi adabiy yo‘nalishga aylanmoqda [McBride, 2025].

Iqlim haqidagi badiiy adabiyot yo‘nalishi doirasida ekologik inqirozning badiiy ifodasi, iqlim o‘zgarishi, ekologik adolat hamda barqaror rivojlanish g‘oyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada iqlimiy badiiy adabiyot zamonaviy ekokritikaning muhim tarkibiy qismiga aylanib,

ekologik muammolarni anglashning yangi badiiy va nazariy imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda [Johns-Putra, 2016; Kershen, 2025]. Umuman olganda, iqlimiy badiiy adabiyotning rivojlanishi ekologik adabiyotning mazmun doirasini sezilarli darajada kengaytirdi. Endilikda badiiy asarlar tabiatni tasvirlash bilan cheklanmay, ekologik ongni shakllantirish, jamiyatni ekologik mas'uliyat ruhida tarbiyalash hamda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni yangicha nuqtayi nazardan talqin qilishga xizmat qilmoqda.

Ekokritikaning zamonaviy bosqichida ekologik gumanitar fanlar yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv ekologik muammolarni faqat tabiiy fanlar nuqtayi nazaridan emas, balki tarix, falsafa, antropologiya, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ekologik inqirozni nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida ham tushunishga imkon beradi.

